

# **XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA TA’LIMNING**

## **KO‘RGAZMALILIK TAMOYILI**

**Sattorova Shaxnoza Raxmonqulovna**

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, nemis tili fani o‘qituvchisi**

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada xorijiy tillarni o‘qitishda ta’limning ko‘rgazmalilik tamoyili, uning turlari va ahamiyati, muhim xususiyatlari va pedagog olimlar fikrlari haqida fitkr-mulohazalar bildirilgan, shuningdek, ko‘rgazmalik tamoyilidan dars jarayonlarida samarali foydalanish va buning o‘ziga xos jihatlari haqida ma’lumotlar berilgan.

*Kalit so‘zlar:* Pedagogik tamoyil, didaktik, psixologik va metodik tamoyillar, ko‘rgazmalilik tamoyili, tashqi ko‘rgazmalilik, ichki ko‘rgazmalilik.

*Аннотация:* В данной статье высказаны мнения о демонстрационном принципе обучения при обучении иностранному языку, его видах и значении, важных особенностях и мнениях ученых-педагогов, а также об эффективном использовании демонстрационного принципа в процессе обучения и его специфических аспектах, предоставленная информация.

*Ключевые слова:* Педагогический принцип, дидактический, психолого-методический принцип, принцип демонстрации, внешняя демонстрация, внутренняя демонстрация.

*Abstract:* In this article, opinions are expressed about the demonstration principle of education in foreign language teaching, its types and importance, important features and the opinions of pedagogic scientists, as well as about the effective use of the demonstration principle in teaching processes and its specific aspects, information provided.

*Keywords:* pedagogical principle, didactic, psychological and methodical principles, principle of demonstration, external demonstration, internal demonstration.

**Kirish.** Xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan talab yanada ortib borayotgan ayni damda dars mashg‘ulotlarini samarali tashkil etishni yanada takomillashtirish, nazariy materialning ishonarliligi, dalillanganligi va sodda tilda bayon qilinishi katta ahamiyatga ega. Yaxshi tayyorlangan har bir o‘qituvchi o‘quvchilarni birgalikda fikrlash jarayoniga ustalik bilan olib kiradi, olingan axborotni tanqidiy tushunib anglashda yordam beradi, bu esa pirovard natijada mustahkam e’tiqod sistemasini yaratadi va bu masalalarni hal qilishda ko‘rgazmalilik tamoyili beba ho yordamchi bo‘lib xizmat qiladi. Ko‘rgazmali o‘qitish nazariy fikrlashni yaxshiroq shakllantirishga va bayon qilingan asosiy fikrlarni yanada chuqurroq eslab qolishga imkon beradi, ayniqsa o‘quvchi - talabalar yangi so‘zlarni yod olishlarida xotirasida mustahkam o‘rnashib qolishiga sabab bo‘ladi.

Ma’lumki, xorijiy tillar o‘qitilishida metodlarni tatbiq etish uzoq davrlardan boshlangan, tamoyillar esa nisbatan yangiroq metodik atamalardan biridir. Chunki ilgari tamoyillar sof didaktik tushuncha, deb kelingan. Ta’lim tamoyillari xorijiy tillarni o‘qitish metodikasida keng ishlataladi, ammo o‘qitish maqsadlari, mazmuni va shart-sharoitlari bevosita nazarga olinadi hamda dars jarayonida tadbiq etiladi.

**Muhokama va natijalar.** Buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy ilk bor XVII asrda kashf etgan tamoyillar hozirgi kungacha dolzarbligini saqlab kelmoqda. U o‘zining ”Buyuk didaktika” asarida ”O‘quvchilar sezib idrok etishi mumkin bo‘lgan narsalarni, albatta, sezgilar vositasi bilan, ya’ni ko‘rish mumkin bo‘lgan narsalarni ko‘z bilan ko‘rib, eshitish mumkin bo‘lgan narsalarni qulqoq bilan eshitib, hidi bor narsalarni hidlab ko‘rib, ta’mini sezish mumkin bo‘lgan narsalarni tatib ko‘rib, ushlab sezish mumkin bo‘lgan narsalarni ushlab bilib olishlari kerak” deb yozgan edi. [1]

Metodikada tarixiy metodlar odatda tamoyillardan tashkil topadi, tamoyillar yig‘indisi muayyan metodni hosil qiladi. Jarayon metodlari esa o‘qitish yo‘llari orqali yuzaga chiqadi, binobarin, o‘qitish metodlari va o‘qitish tamoyillari alohida-alohdda muhokama etiladi. O‘qitishda *didaktik, psixologik va metodik tamoyillar* qo‘llanilishi mumkin. [2]

**Pedagogik tamoyil (printsiplar)** - o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabat orqali beriladigan bilim turi, hajmi va mazmuni, shuningdek, o‘quv

qurollari va tarbiyalanuvchilarning ruhiy xususiyatlari o'rtasidagi zaruriy bog'liqliklardan kelib chiqqan qonuniyatga amal qilish.

**Ko'rgazmalilik tamoyili** - ta'limning muhim tamoyillaridan biri bo'lib, darslarda didaktik vositalardan foydalanish metodikasıdir. Ko'rgazmalik tamoyili darsda o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishining yanada ortishiga, diqqat-e'tiborining bir nuqtaga to'planishiga va faollashuviga, ya'ni butun bilish jarayonini jadallashtirishga sabab bo'lishi isbotlangan. Ko'rgazmalilikdan foydalanish har qanday o'quv jarayoninig zarur sharti, og'zaki nutq ta'sirchanligini oshirishning eng samarali negizlaridan biri hisoblanadi.

Ta'limda ko'rgazmali vositalardan foydalanish o'quvchining tafakkur darajasiga ko'ra belgilanadi. Ayniqsa kichik maktab yoshidagi bolalarda fikrlash qobiliyati ustun va ularda aniq-obrazli, harakatli-obrazli fikrlash shakllarining rivojlanganligi sababli turli xildagi rasm, jadvallar asosida narsa-voqealarning mohiyatini chuqurroq anglaydi. [3]

Ko'rgazmalilik natijasida o'quvchi induktiv va deduktiv xulosalar chiqarishni o'rganadi. Ana shularning barchasi ko'rgazmalilik tamoyilining onglilik tamoyili bilan o'zaro uzviy bog'langanligini isbotlaydi va yonma-yon tavsiflashni talab etadi. Ko'rgazmalilik juda kop tortishuvlarga sabab bo'lgan, uzoq tarixga ega ta'lim tamoyillaridan biridir.

I.G. Pestalossi ko'rgazmalilik tamoyilini ma'lum darajada boyitdi. U ko'rgazmalilikning zarurligini himoya qilish bilan bir vaqtda, sezgi organlari atrofimizdagи borliq to'g'risida tartibsiz ma'lumotlar olib keladi, deb hisoblagan edi. Ta'lim kuzatishlardagi tartibsizlikni yo'qotishi, buyumlarni aniq belgilab berishi, ularning bir turdagilarini va o'zaro yaqinlarini esa birlashtirishi, ya'ni tushunchani shakllantirishi kerak.

K. D. Ushinskiy ham ta'limning ko'rgazmalilik metodiga katta ahamiyat berib, ko'rgazmalilikni nutq hamda tafakkurni rivojlantirish bilan birga qo'shib qo'llashga da'vat etib, obrazli nutqni esa o'ziga xos ko'rgazmalilikka kiritganligi ham bejiz emas.

Xorijiy tillarni o‘qitishda ko‘rgazmali mashg‘ulot an’anaviy mashg‘ulotlarga qaraganda sezilarli ustunliklarga ega, shuning uchun o‘qituvchidan ko‘rgazmalilik tamoyilini, undan foydalanishning metodik imkoniyatlarini ham chuqur o‘rganish talab etiladi. Ko‘rgazmalilik tamoyilini asoslash negizida bilimlarning dastlabki va yagona manbai bo‘lmish sezgi to‘g‘risidagi muhim ta’limot yotadi. Insonning har qanday amaliy va nazariy faoliyati sezgiga, idrokka asoslanadi, shuning uchun ham dars mashg‘ulotlarida ko‘rgazmalik tamoyilidan samarali foydalanish butun bilish jarayonining sezgiga asoslangan, zarur tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ko‘rgazmalilik ikki yirik guruhga bo‘linadi: **tashqi (predmetga oid) va ichki (lisoniy) ko‘rgazmali vositalar**. Tashqi ko‘rgazmalilik tasvirda, masalan, predmet, rasm, jadval yoki harakat tarzida va ichki ko‘rgazmalilik esa til imkoniyatlaridan kelib chiqadigan ko‘rgazmalilikdir. Ichki ko‘rgazmalilik tovush yoki harfni namoyish etishdan boshlab, matndagi mazmunigacha bo‘lgan qator til vositalaridan iboratdir. Yangi so‘zning matndagi ma’nosini fahmlab olish, so‘z yoki forma yasash elementlari yordamida til birligini tushunib olish, til tajribasidan foydalanish til ko‘rgazmaliligin tashkil etadi. Predmet va til bilan bog‘liq ko‘rgazmalilik o‘rganilayotgan o‘quv materialining xususiyati va o‘qitish bosqichiga qarab muallim tomonidan farqlab qo‘laniladi.

Ichki ko‘rgazmalilikning asosiy afzalligi shundaki, o‘qituvchining har bir so‘zi o‘quvchining butun vujudini band etib, uning ongida tasavvurlar, assotsiatsiyalar, hayajonga soluvchi obrazlarning murakkab tizmasini hosil qildiradi. Natijada dars samaradorligi oshadi va o‘quvchilar darsni yaxshi o‘zlashtirishga erishadilar. Shu sababli o‘qitishning ko‘rgazmali tamoyillari dars mashg‘ulotlari davomida ijobiy xususiyatlariga ko‘ra barcha yirik pedagoglar tomonidan ma’qullangan va rivojlantirilgan.

Xorijiy til o‘rganilayotganda bevosita yangi so‘zlarni yod olish va eslab qolish ko‘p hollarda qiyinchiliklarga olib keladi. Xususan, o‘quvchilar ko‘p hollarda darsda grammatik qoidalarni juda yaxshi anglab olishadi va buni mashqlar orqali tezda mustahkamlashga erishadilar, natijada gapirish ko‘nikmalarini shakllantirishda jumlalarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzishga harakat qilishadi, ammo so‘z boyligi

yeterli darajada emasliklari sababli o‘z fikrini ifodalashga, fikrini bayon etishga qiyinalishadi. Bunga sabab qilib ularning psixologik jihatdan yangi so‘zlarni shunchaki yod olishga xoxishi yo‘qligi keltirishimiz mumkin. Aynan shu borada ularga yangi so‘zlarni ko‘rgazmalilik tamoyili asosida mavzulashtirilgan holda yod oldirish ijobiy samara beradi. Natijada past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarda ham tortinchoqlik yo‘qoladi, negaki to‘g‘ri javoblar kishida o‘z kuchiga, qobiliyatiga nisbatan ishonch uyg‘otadi, ularda o‘qishga bo‘lgan havas ortadi, erkin fikr yuritishga harakat qilishadi. Vaqt ni tejash imkon yuzaga keladi.

**Xulosa.** Ta’limdagi ko‘rgazmalilikning ahamiyati oliy nerv faoliyatining materialistik konsepsiyasidan kelib chiqadi, ko‘rgazmali vositala kishining birinchi signal sistemasining rivojlanishiga va uning asosida esa, ikkinchi sistemasining ham rivojlanishiga samarali yordam qila oladi, deb faraz qilinadi.[2]

Bilim berish ko‘rgazmalilikdan mavhumlikka qarab, shuningdek, umumlashtirilgan mavhumliklardan real ko‘rgazmali ob’ektlarini, faktlarni, misollarni va hokazolarni tahlil qilishga tomon davom etishi mumkin.

O‘qitish jarayonida ko‘rgazmalilik tamoyilini qo‘llashning muhimligi o‘qish jarayonida o‘rganilayotgan ob’ekt va hodisani hissiy idrok etishga, ularni *jonli mushohada* qilishga, bilish faoliyatida hissiy, mantiqiy va nazariy elementlarning birligiga undashida aks etishi bilan izohlash mumkin.

Ko‘rgazmalilikning o‘quv jarayonida nihoyatda muhim ahamiyatga ega ekanligi to‘g‘risida kundalik kuzatishlar va kishilarning kundalik ish tajribalarigina emas, balki maxsus tajribalar ham guvohlik beradi hamda bu borada “yuz marta eshitgandan ko‘ra, bir marta ko‘rgan yaxshi” naqli o‘z isbotini topadi.

Ko‘rgazmali idrok katta imkoniyatlarga egadir. Eslab qolishda ko‘rgazmalilikning o‘zi emas, balki ularning nutq va amaliy faoliyat bilan biriktirilishi eng yuqori samaradorlikka ega bo‘ladi. Zero, ko‘rgazmalilikdan foydalanganda turli sezgi organlari aktiv faoliyatga jalb qilinadi va kishi kerakli fikrni o‘zlashtirish, qayta ishslash, anglash va esda olib qolish uchun o‘zining aqliy imkoniyatlarini yanada to‘laroq ishga soladi. O‘quvchilarning tushunishini faollashtirish, murakkab grammatik qoidalarni, yangi mavzu va so‘zlarni

o‘zlashtirishda ularga yordam berish uchun o‘qituvchi ichki va tashqi ko‘rgazmalilik yordamiga tayanadi. Ammo, ko‘rgazmalilikni muvaffaqiyatli qo‘llash asosiy maqsad emasligini, undan foydalanganda psixologik jihatlarini ham hisobga olib, o‘z o‘rnida, yetarli darajada foydalanish kerakligini, shuningdek, o‘quvchilar bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishda barcha omillarni inobatga olish zarurligini ham unutmasligimiz lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Y.K.Babanskiy Hozirgi zamon umumiy ta’lim mакtabida o‘qitish metodlari. Toshkent: O‘qituvchi, 1990. - 230-b.
2. J. Jalolov, Chet tili o‘qitish metodikasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 2012. -74-b.
3. Pedagogika entsiklopediya. I jild. -Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. -209-b.